

## PAXTA TO‘QIMACHILIK KLASSTER ISHTIROKCHILARI O‘RTASIDAGI IQTISODIY MUNOSABATLAR TAHLILI

**Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslari va amaliy jihatlarini tahlil qilindi. Tadqiqotda klaster tizimining ishlab chiqarish samaradorligi, resurs almashinuvi, innovatsion hamkorlik va raqobatbardoshlikka ta’sir mexanizmlari o‘rganildi. Porter, Krugman va Marshall tomonidan ishlab chiqilgan klaster nazariyalari tizimli tahlil qilindi. O‘zbekiston paxtachilik-to‘qimachilik klasterlari misolida vertikal va gorizontal integratsiya aloqalarining ishlab chiqarish hajmi, eksport ko‘rsatkichlari va bandlikka ta’siri statistik ma’lumotlar asosida baholandi. Tadqiqot natijalari klaster ichki munosabatlarining qo‘shilgan qiymat zanjiri rivojlanishiga, sanoat samaradorligiga va eksport salohiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini tasdiqladi. Olingan natijalar klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish uchun ilmiy asos sifatida baholandi.

**Kalit so‘zlar:** klaster, iqtisodiy munosabatlar, raqobatbardoshlik, vertikal integratsiya, gorizontal integratsiya, innovatsiya, qo‘shilgan qiymat zanjiri, to‘qimachilik sanoati, eksport.

### **Аннотация**

В статье проанализированы теоретические основы и практические аспекты экономических отношений между участниками кластеров. Исследовано влияние кластерной системы на производственную эффективность, обмен ресурсами, инновационное сотрудничество и конкурентоспособность. Проведен системный анализ теоретических подходов Портера, Кругмана и Маршалла. На примере хлопково-текстильных кластеров Узбекистана оценено влияние вертикальной и горизонтальной интеграции на объем производства, экспортные показатели и занятость. Анализ статистических данных показал рост эффективности функционирования отрасли в условиях кластерной организации производства. Результаты исследования подтвердили, что развитие внутрикластерных экономических связей способствует укреплению цепочки добавленной стоимости, повышению промышленной эффективности и расширению экспортного потенциала.

**Ключевые слова:** кластер, экономические отношения, конкурентоспособность, вертикальная интеграция, горизонтальная интеграция, инновации, цепочка добавленной стоимости, текстильная промышленность, экспорт.

### **Abstract**

This article analysed the theoretical foundations and practical aspects of economic relations among cluster participants. The study examined the impact of cluster systems

on production efficiency, resource exchange, innovative cooperation, and competitiveness. The theoretical approaches of Porter, Krugman, and Marshall were systematically reviewed. Using Uzbekistan's cotton-textile clusters as a case study, the influence of vertical and horizontal integration on production volume, export performance, and employment was evaluated based on statistical data. The analysis demonstrated improved industrial efficiency under cluster-based production organization. The findings confirmed that the development of intra-cluster economic relations strengthened value chains, increased industrial productivity, and expanded export capacity. The results were assessed as an analytical basis for improving economic cooperation among cluster participants.

**Keywords:** cluster, economic relations, competitiveness, vertical integration, horizontal integration, innovation, value chain, textile industry, export.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasida klaster tushunchasi kompaniyalar, yetkazib beruvchilar, ilmiy muassasalar va davlat tashkilotlarining geografik jihatdan yaqin joylashgan o'zaro bog'liq tizimini anglatadi. M.Porter (1990) klasterlarni millatlarning raqobat ustunligi shakllanishida hal qiluvchi tashkiliy birlik sifatida tavsiflagan [1]. Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning mohiyati shundan iboratki, korxonalar alohida faoliyat yuritgandagi imkoniyatlardan ko'ra klaster tarkibida hamkorlik qilganida ancha yuqori samaradorlikka erishadi [2].

Klaster ichidagi iqtisodiy aloqalar ko'p qirrali xarakterga ega: xom ashyo yetkazish, texnologik kooperatsiya, kadrlar almashishi, ilmiy-tadqiqot natijalari diffuziyasi, logistik tizimlarning integratsiyasi kabi jarayonlar birgalikda klaster ishtirokchilarining raqobatbardoshligini oshiradi [3]. Jahon iqtisodiyotida klaster modellari turli sohalarda – avtomobilsozlik, axborot texnologiyalari, farmatsevtika, to'qimachilik va agrosanoat kabi yo'nalishlarda keng joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida klaster tizimining tatbiq etilishi 2017-yildan boshlangan keng ko'lamli islohotlar bilan chambarchas bog'langan. Xususan, paxtachilik-to'qimachilik sohasida 2018-yildan boshlab klasterlar tashkil etila boshlangan va 2024-yilga kelib ularning soni 142 taga yetgan [4]. Bu jarayon davlat tomonidan boshqariladigan paxta ishlab chiqarish tizimidan xususiy sektorda vertikal integratsiyalangan klaster modeliga o'tishni anglatadi.

Tadqiqotning maqsadi klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslarini tizimlashtirish, ularning samaradorlik, innovatsiya va raqobatbardoshlikka ta'sir mexanizmlarini aniqlash hamda O'zbekiston klaster tajribasini amaliy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot ilmiy adabiyotlarni kontekstual tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni solishtirma o'rganish va holat tadqiqoti (case study) usullariga asoslanadi.

Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning tadqiq etilishi iqtisodiy fanlar doirasida muhim ahamiyatga ega, chunki bu munosabatlar regional iqtisodiy rivojlanish, innovatsion salohiyat va xalqaro raqobatbardoshlik kabi strategik masalalar bilan bevosita bog'langan. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun klaster modeli sanoat modernizatsiyasi va eksport diversifikatsiyasining samarali

vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. O‘zbekiston misoli bu nazariy taxminni amaliy dalillar bilan tasdiqlash imkoniyatini beradi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Klaster nazariyasining zamonaviy shakllanishida M.Porterning “The Competitive Advantage of Nations” asari fundamental ahamiyatga ega. Porter klasterlarni ma‘lum geografik hududda joylashgan, o‘zaro raqobatlashuvchi va ayni paytda hamkorlik qiluvchi kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar hamda tegishli institutlarning (universitetlar, standart agentliklari, savdo uyushmalari) yig‘ilmasi sifatida ta‘reftlagan [1]. Uning “olmos modeli” omillar sharoitlari, talab sharoitlari, kompaniya strategiyasi va raqobat konteksti, hamda yordamchi va bog‘liq tarmoqlar kabi to‘rtta asosiy tarkibiy qismni o‘z ichiga oladi [5].

Porter Harvard Business Review jurnalida e‘lon qilingan maqolasida klasterlarning raqobatga uch yo‘nalishda ta‘sir ko‘rsatishini isbotlagan: birinchidan, hududdagi kompaniyalar unumdorligini oshirish; ikkinchidan, innovatsiya yo‘nalishi va tezligini belgilash; uchinchidan, klaster ichida yangi biznes sub‘ektlarining shakllanishini rag‘batlantirish [6]. Geografik, madaniy va institutsional yaqinlik kompaniyalarga maxsus resurslar, yaqinroq munosabatlar, sifatliroq axborot va kuchli rag‘batlantirishga ega bo‘lish imkonini beradi.

P.Krugman “Geography and Trade” asarida iqtisodiy agglomeratsiya va klasterlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni transport xarajatlarini kamaytirish va oraliq tovarlarni yaqin joylardan olish nuqtai nazaridan asoslagan [7]. Krugman klasterlarning shakllanishini “ikkita kuch” – sentripetal (markazga tortuvchi) va sentrifugal (markazdan itaruvchi) kuchlarning nisbati bilan izohlagan. Bu nazariy yondashuv klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning shakllanish mexanizmini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

A.Marshall ning sanoat tumanlari (industrial districts) konsepsiyasi klaster nazariyasining dastlabki nazariy negizlaridan biri hisoblanadi [8]. Marshall mahalliy ixtisoslashuv, mehnat bozori va bilimlar diffuziyasi kabi uchta asosiy tashqi iqtisodiy samarani ajratib ko‘rsatgan. Zamonaviy tadqiqotlarda bu samaralar klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning fundamental kategoriyalari sifatida qaraladi.

Yevropalashgan klaster siyosati kontekstida Ketels klasterlar globallashuv sharoitida yanada muhimroq ahamiyat kasb etayotganini ta‘kidlagan. Globallashuv arzon ish kuchi, xom ashyo yoki umumiy texnologiyalar kabi masofaviy manbalardan foydalanish mumkin bo‘lgan raqobat ustunliklarini neytrallashtiradi. Shu sababli, mahalliy klaster ichidagi noyob bilimlar, munosabatlar va motivatsiya omillari yanada hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [9].

Yevropa klaster platformasi (ECCP) tomonidan 2024-yilda nashr etilgan “Cluster Panorama” hisobotiga ko‘ra, klaster tashkilotlari sanoat raqobatbardoshligining harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholangan. 24 ta ko‘rsatkich bo‘yicha o‘tkazilgan korrelyatsion tahlil klaster mavjudligi va sanoat raqobatbardoshligi o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli munosabat borligini aniqlagan [10].

Rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida klaster siyosatining samaradorligi bo'yicha ham muhim tadqiqotlar mavjud. Bergman va Feser klaster nazariyasi rivojlangan iqtisodiyotlarda samarali tatbiq etilsa-da, kam rivojlangan mamlakatlarda asosiy sohalarga resurslarni jamlash qiyinroq ekanligi haqida ogohlantirgan [11]. Biroq, O'zbekiston tajribasi bu fikrni qisman rad etadi: davlat tomonidan maqsadli ko'llab-quvvatlangan klaster siyosati qisqa vaqt ichida sezilarli natijalar bergan.

Jahon banki O'zbekiston paxtachilik-to'qimachilik klasterlarini maxsus tahlil qilib, klaster modelining ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchilar o'rtasidagi munosabatlardan ikkala tomon ham foyda olish uchun tashkil etilganligini qayd etgan [12]. Ishlab chiqaruvchilar bozorga chiqish, maslahat xizmatlari va zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lsa, qayta ishlovchilar kelishilgan miqdor va sifatidagi xom ashyodan foydalanish imkoniyatini oladi.

Babadjanov va Petrick tomonidan "Eurasian Geography and Economics" jurnalida nashr etilgan tadqiqot O'zbekiston paxta klasterlarini sanoat siyosati kontekstida o'rganib, klaster yondashuvining davlat monopsoniyasini xususiy integratsiyalangan tizimga almashtirish jarayonida hal qiluvchi vosita bo'lganini ko'rsatgan [13]. Tadqiqotda to'rtta klaster (Baxt, Bo'ston, Sangzor va boshqalar) holat tadqiqoti usulida o'rganilgan.

UNDP Moldova klasterlari tajribasini tahlil qilib, klasterlarning yangi bozorlarni rivojlantirish, xalqaro investorlarni jalb etish va startaplar uchun qulay muhit yaratish jihatlarni ajratib ko'rsatgan [25]. Bu tadqiqotda klaster ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari an'anaviy iqtisodiy kooperatsiyaning zamonaviy shakli sifatida baholangan. Xususan, klaster a'zolari birgalikda xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish, tashqi moliyalashtirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun strategik ittifoqlar tuzishi mumkinligi ta'kidlangan.

Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning nazariy tahlilida ishonch (trust) kategoriyasi alohida ahamiyatga ega. Loo Singapur klasterlari tajribasini tahlil qilib, ishtirokchilar o'rtasidagi ishonchning uch tarkibiy qismini – qobiliyat, ishonchlilik va xayrihohlik – ajratib ko'rsatgan [26]. Tadqiqotga ko'ra, qobiliyat va ishonchlilik masofaviy hamkorlik orqali shakllanishi mumkin, ammo xayrihohlik faqat yuzma-yuz muloqot jarayonida vujudga keladi. Bu xulosa klasterlarning geografik yaqinlik jihatini nazariy asoslashda muhim argument sifatida xizmat qiladi.

ScienceDirect platformasida nashr etilgan tadqiqotda innovatsion sanoat klasterlarining shahar iqtisodiy barqarorligiga ta'siri kvazi-eksperimental usulda o'rganilgan [22]. Natijalar shuni ko'rsatdiki, klaster rivojlanishi pilot shaharlarning iqtisodiy barqarorligini 0,151 birlikka oshirgan. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoq tahlili yordamida shaharlar ishlab chiqarish tarmoqlarining markazlashganlik darajasi va klaster ta'siri o'rtasidagi vositachilik mexanizmlari aniqlangan.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqot ikki darajali metodologik yondashuvga asoslangan. Birinchi daraja nazariy-konseptual tahlilni o'z ichiga oladi: klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning mohiyatini tushunish uchun Porter, Krugman, Marshall va Ketels kabi olimlarning fundamental nazariy kontributsiyalari tizimlashtirilib, o'zaro

taqqoslangan. Bu nazariy bazani shakllantirish jarayonida induktiv va deduktiv fikrlash usullari parallel qoʻllanilgan.

Ikkinchi daraja empirik tahlildan iborat boʻlib, Oʻzbekiston paxtachilik-toʻqimachilik klasterlari misolida klaster ichki munosabatlarining amaliy taʼsiri oʻrganilgan. Bu maqsadda quyidagi maʼlumot manbalari qoʻllanilgan: AQSh Qishloq xoʻjaligi vazirligi (USDA) ning tashqi qishloq xoʻjaligi xizmati hisobotlari [14], Jahon banki siyosat dialogining tahliliy materiallari [12], Better Cotton Initiative (BCI) dasturining Oʻzbekiston boʻyicha statistik maʼlumotlari [15], hamda Daryo.uz va UzDaily.uz axborot agentliklarining rasmiy hisobotlari [17].

Tadqiqotda holat tadqiqoti (case study) usuli asosiy empirik yondashuv sifatida qoʻllanilgan. Yin taʼrifiga koʻra, bu usul murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni real kontekstda chuqur oʻrganish imkonini beradi [18]. Oʻzbekiston paxtachilik-toʻqimachilik klasterlari holat tadqiqoti obʼekti sifatida tanlangan, chunki bu soha mamlakatning eng keng koʻlamli klaster tajribasini aks ettiradi: 2024-yilga kelib 142 ta klaster butun paxta yetishtirish maydonini qamrab olgan [4].

Maʼlumotlarni tahlil qilishda solishtirma statistik tahlil, vaqt qatorlari tahlili va tematik kontent-tahlil usullari qoʻllanilgan. Klaster rivojlanishining asosiy koʻrsatkichlari – klasterlar soni, qamrab olingan yer maydoni, bandlik va eksport hajmi – 2018–2024 yillar oraligʻida dinamik tahlil qilingan. Tendentsiyalarni vizualizatsiya qilish uchun statistik grafikalar va jadvallar tuzilgan.

Nazariy modellashtirish nuqtai nazaridan, klaster ishtirokchilari oʻrtasidagi iqtisodiy munosabatlarning tizimlashtirilgan modeli ishlab chiqilgan (1-rasm). Ushbu model Porter va Ketels nazariy kontributsiyalari asosida mualliflar tomonidan adaptatsiya qilingan boʻlib, klaster yadrosi va sakkizta asosiy ishtirokchi guruhi oʻrtasidagi funktsional aloqalarni aks ettiradi [6], [9].


Tadqiqotning cheklanishlarini ham belgilash zarur. Birinchidan, empirik tahlil asosan ochiq manbalardan olingan ikkilamchi maʼlumotlarga asoslangan va birlamchi soʻrov yoki intervyu maʼlumotlarini oʻz ichiga olmaydi. Ikkinchidan, Oʻzbekiston klaster tajribasi nisbatan yangi hodisa boʻlib, uzoq muddatli tendentsiyalarni baholash hali erta. Uchinchidan, tadqiqot asosan paxtachilik-toʻqimachilik klasterlariga qaratilgan va boshqa tarmoqdagi klasterlar (mashinasozlik, farmatsevtika, IT) qamrab olinmagan. Ushbu cheklanishlar kelgusi tadqiqotlar uchun yoʻnalish berishi mumkin.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Klaster ishtirokchilari oʻrtasidagi iqtisodiy munosabatlarning tahlili uchun avval nazariy jihatdan ishtirokchilar tizimini modellashtirish zarur. Porter (1998) taʼriflagan klaster tuzilmasi bir nechta asosiy ishtirokchi guruhlarini oʻz ichiga oladi: asosiy ishlab chiqaruvchilar, xom ashyo yetkazib beruvchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, moliyaviy institutlar, logistika operatorlari, kadrlar tayyorlash tashkilotlari, marketing agentliklari va davlat tartibga solish organlari [6]. Bu ishtirokchilar oʻrtasidagi munosabatlar turli yoʻnalishlarda amalga oshadi va bir-birini toʻldiruvchi sinergik taʼsir hosil qiladi.

Quyida taqdim etilgan 1-rasmda klaster ishtirokchilari oʻrtasidagi iqtisodiy munosabatlarning tizimlashtirilgan modeli keltirilgan.





**1-rasm. Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar modeli<sup>1</sup>**

1-rasmda ko'rsatilganidek, klaster yadrosi atrofida sakkizta asosiy funktsional yo'nalish shakllanadi. Har bir yo'nalish ikki tomonlama resurs oqimlarini o'z ichiga oladi. Masalan, ishlab chiqaruvchilar va klaster yadrosi o'rtasida mahsulot ishlab chiqarish, sifat nazorati va hajmni muvofiqlashtirish bo'yicha uzluksiz aloqa mavjud. Moliyaviy institutlar investitsiya va kredit resurslari oqimini ta'minlaydi, ilmiy muassasalar esa innovatsion yechimlar va texnologik konsaltingni taqdim etadi [6, 9].

Bu munosabatlarning amaliy ta'sirini baholash uchun O'zbekiston paxtachilik-to'qimachilik klasterlari tajribasiga murojaat qilamiz. O'zbekistonda klaster tizimining joriy etilishi 2017-yildagi keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar doirasida boshlangan. Hukumat davlat paxta agentligini (Uzpahtasanoat) tugatib, klaster yondashuvini e'lon qilgan [13]. 2018-yilda dastlabki 13 ta klaster tashkil etilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 142 taga yetgan. Bu ko'rsatkich 6 yil ichida 992 foizlik o'sishni anglatadi.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston paxtachilik-to'qimachilik klasterlarining 2018–2024 yillar oralig'idagi rivojlanish dinamikasi keltirilgan.

1-jadval ma'lumotlarida klaster tizimining kengayishi barcha asosiy ko'rsatkichlarda izchil o'sish bilan kuzatildi. Klasterlar qamrab olgan yer maydoni 165 ming gektardan 1034 ming gektarga yetgan, ya'ni qamrov ulushi 16 foizdan 100 foizga ko'tarilgan [4], [12], [15]. Bu ma'lumotlar Jahon banki, USDA va BCI hisobotlarida qayd etilgan rasmiy statistikaga asoslangan.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi


1-jadval.

**O'zbekistonda klaster tizimining rivojlanish dinamikasi (2018–2024)<sup>1</sup>**

| Ko'rsatkich                 | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2022-yil | 2024-yil |
|-----------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|
| Klasterlar soni             | 13       | 75       | 92       | 134      | 142      |
| Qamrab olingan yer, ming ga | 165      | 651      | 886      | 980      | 1034     |
| Qamrov ulushi, foizda       | 16       | 63       | 88       | 95       | 100      |
| Band. Soni, ming kishi      | 188      | 280      | 350      | 470      | 600      |
| Eksport, mlrd AQSH dollari  | 0,35     | 0,65     | 0,7      | 1,9      | 3,1      |

Bandlik ko'rsatkichi ham sezilarli o'sish dinamikasini namoyon etgan: 2018-yilda to'qimachilik sanoatida 188 ming kishi band bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu raqam 600 ming kishiga yetgan [17]. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, bu o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi klaster ichidagi vertikal integratsiya jarayoni bo'lgan: xom ashyo (paxta) dan tayyor mahsulotgacha (ip, gazlama, tikuv-trikotaj buyumlari) bo'lgan to'liq qiymat zanjirining bitta tashkiliy tuzilma doirasida jamlanganligi [12].

Eksport ko'rsatkichlari klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning samaradorligini eng yaqqol aks ettiruvchi indikatoridir. 2-rasmda ko'rsatilganidek, to'qimachilik klasterlari eksporti 2017-yildagi 6 million AQSh dollaridan 2023-yilda 3,1 mlrd AQSh dollariga yetgan [14, 16].



**2-rasm. O'zbekiston to'qimachilik klasterlari eksport dinamikasi (2017–2023, mlrd AQSh dollari)<sup>2</sup>**

<sup>1</sup> World Bank (2020), USDA (2024), BCI (2024), Daryo.uz (2024) manbalari ma'lumotlari asosida tuzilgan

<sup>2</sup> Manba: USDA Foreign Agricultural Service (2024), Daryo.uz (2024) ma'lumotlari asosida tuzilgan

2-rasmdagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, klaster tizimining joriy etilishi eksport hajmining keskin o'sishiga olib kelgan. Bu o'sishning eng muhim xususiyati – eksport strukturasidagi sifat o'zgarishi. USDA hisobotiga ko'ra, 2005–2015 yillarda ip-gazlama eksportida ipning o'rtacha ulushi 64 foizni tashkil etgan. 2018-yilga kelib bu ko'rsatkich 47 foizga tushgan [14]. Bu degani, klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tufayli mahsulot past qo'shilgan qiymatli xom ashyo eksportidan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot eksportiga o'tishni ta'minlagan.

Klaster ichki munosabatlarining yana bir muhim jihati – ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchilar o'rtasidagi shartnomaviy aloqalar tizimi. Babadjanov va Petrick tadqiqotiga ko'ra, Bo'ston klasterida 223, Baxt to'qimachilik klasterida 585, Sangzor to'qimachilik klasterida esa 648 fermer xo'jaligi bilan shartnomalar tuzilgan [13]. Bu shartnomalar orqali fermerlar bozorga chiqish, maslahat xizmatlari va zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lgan, qayta ishlovchilar esa barqaror xom ashyo oqimini kafolatlagan.

Moliyaviy institutlarning klaster ichki munosabatlaridagi roli ham e'tiborga loyiq. 2023-yil yanvar oyida Prezident farmoni asosida to'qimachilik klasterlariga 200 million AQSh dollari miqdorida kreditlar ajratilgan [16]. Bu mablag'lar gazlama, trikotaj va tayyor kiyim eksport qiluvchi korxonalarga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, 2024-yilda qo'shimcha 100 million AQSh dollari ajratilishi rejalashtirilgan [14]. Bu moliyaviy oqimlar klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning investitsion tarkibiy qismini shakllantiradi.

Klaster tizimining samaradorligini makroiqtisodiy kontekstda ham baholash mumkin. XVJ hisobotiga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyoti 2023-yilda 6 foiz o'sish sur'atini qayd etgan [19]. Sanoat ishlab chiqarishi 6 foiz, xizmatlar sektori 6,8 foiz, qurilish esa 6,4 foiz o'sgan [20]. Bu ko'rsatkichlar ichida to'qimachilik sanoatining klaster tizimi orqali erishgan natijalari alohida o'rin egallaydi.

Davlat siyosatining klaster munosabatlarini tartibga solishdagi roli ham tahlilga muhtoj. O'zbekiston hukumati fermerlarga paxta sotish uchun o'z hududidagi istalgan klasteri tanlash huquqini bergan [16]. Bu qaror bozor mexanizmlarini kuchaytirish va klaster ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni raqobatli asosga o'tkazish yo'lida muhim qadam bo'lgan. O'zbekiston tovar-xom ashyo birjasida (UzEx) paxta fyuchers shartnomalari joriy etilishi ham ushbu jarayonni to'ldirib, narx shakllanishining bozor mexanizmlarini mustahkamlagan [14].

Xalqaro sertifikatsiyaning klaster munosabatlaridagi ahamiyati ham ortib bormoqda. Better Cotton Initiative (BCI) 2024-yilda O'zbekistonda 50 000 gektar maydonda sertifikatsiyani amalga oshirgan va bu ko'rsatkichni kengaytirish rejalashtirilgan [15]. Bundan tashqari, Oeko-Tex va organik sertifikatlar klaster ishtirokchilarining xalqaro bozorlarga kirishini osonlashtirmoqda.

AQSH Davlat departamentining investitsiya muhiti hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda 24 ta yirik maxsus iqtisodiy zona va 742 ta kichik sanoat zonasi faoliyat yuritmoqda. 2023-yilda ularning sanoat ishlab chiqarishi 4 mlrd AQSh dollaridan oshgan, eksport daromadlari esa deyarli 1 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan [21]. Bu



ko'rsatkichlar klaster va iqtisodiy zonalar tizimining mamlakatning sanoat salohiyatini oshirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Jahon iqtisodiy forumining "Transitioning Industrial Clusters" hisoboti sanoat klasterlarining global CO<sub>2</sub> emissiyalarining 30 foizini tashkil etishini qayd etib, klasterlarning energiya o'tish jarayonidagi rolini ta'kidlagan [22]. Bu kontekstda O'zbekiston klasterlarining barqaror rivojlanish yo'lida qo'llayotgan choralari – suv tejovchi texnologiyalar, biologik zararkunandalarga qarshi kurash va BCI standartlarini joriy etish – xalqaro tendentsiyalarga mos keladi.

Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yana bir muhim tarkibiy qismi – bilimlar va texnologiyalar diffuziyasi. Porter ta'kidlaganidek, klaster ichidagi geografik yaqinlik axborot oqimlarini tezlashtiradi va innovatsion g'oyalarning tarqalishini osonlashtiradi [6]. O'zbekiston to'qimachilik klasterlarida bu jarayon quyidagicha namoyon bo'lmoqda: 2020-yildan boshlab BCI treninglari doirasida barqaror paxta yetishtirish printsiplari va mezonlari bo'yicha o'quv dasturlari amalga oshirilmoqda [15]. Klaster koordinatorlari va fermer xo'jaliklari vakillari ushbu treninglardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanib, biologik himoya usullari, tuproq sog'ligini saqlash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy bilimlarni o'zlashtirmoqda.

Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi gorizontalar ham e'tiborga loyiq. Gorizontalar integratsiya bir xil ishlab chiqarish bosqichidagi korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni anglatadi. O'zbekiston kontekstida bu, masalan, bir nechta to'qimachilik korxonalarining birgalikda xom ashyo sotib olishi, yagona logistika tizimidan foydalanishi yoki birgalikda xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etishi shaklida namoyon bo'ladi. Boston Consulting Group baholashiga ko'ra, O'zbekiston kamida 15 mlrd AQSh dollari qiymatidagi to'qimachilik mahsuloti ishlab chiqarish va 500 000 ta yangi ish o'rni yaratish salohiyatiga ega [16].

Klaster munosabatlarining yana bir jihati – qiymat zanjiri (value chain) bo'ylab vertikal integratsiya. O'zbekiston paxtachilik-to'qimachilik klasterlarida bu zanjir quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: paxta yetishtirish, xom paxtani tozalash (ginning), ip yigirish, gazlama to'qish, bo'yash va pardoqlash, tikuv-trikotaj ishlab chiqarish. Har bir bosqichda qo'shilgan qiymat ortib boradi. USDA ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 1 kilogramm ipning narxi jahon narxlaridan o'rtacha 28 foiz arzon [14]. Bu narx ustunligi klaster ishtirokchilari o'rtasidagi vertikal integratsiya natijasida tranzaksiya xarajatlarining kamayishi bilan izohlanadi.

EBRD O'zbekiston strategiyasida qayd etilganidek, mamlakatning iqtisodiy islohatlari xususiy sektorni kengaytirish va davlat ishtirokini kamaytirish yo'lida davom etmoqda [23]. Klaster tizimi bu islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Xususan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki O'zbekistonda asosiy mahalliy korxonalarga investitsiya kiritgan, jumladan oziq-ovqat chakana savdo tarmog'i va farmatsevtika kompaniyalariga qo'shma moliyalashtirish ajratgan.

Eurasian Research Institute tahlillariga ko'ra, O'zbekiston 2030-yilga kelib sanoat-texnologik mahsulotlar ulushini 25 dan 32 foizga oshirishni, qayta ishlash sanoati mehnat unumdorligini ikki barobar oshirishni hamda 8 ta tadqiqot va ishlab

chiqarish klasteri tashkil etishni rejalashtirmoqda [24]. Bu maqsadlar metallarni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika, transport va logistika, qishloq xo'jaligi samaradorligi va hosildorlik kabi sohalarga qaratilgan. Bunday strategik rejalashtiruv klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yanada chuqurlashishiga zamin yaratadi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2024-yilda kambag'allik darajasini 20,7 foizga tushirishga muvaffaq bo'lgan (AQSh 8,3 dollari/kun yuqori o'rta daromadli mamlakatlar chegarasi bo'yicha) [23]. Iqtisodiy o'sish sur'atining 2025-yilda 6,2 foiz, 2026-yilda esa 6 foiz darajasida prognoz qilinishi klaster tizimining makroiqtisodiy barqarorlikka qo'shayotgan hissasini bilvosita tasdiqlaydi.

Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning samaradorligini baholashda muhim parametrlardan biri – mehnat unumdorligi o'sishi. O'zbekiston Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi YaIMda 2017-yildagi 22,7 foizdan 2022-yilda 30 foizga oshgan [24]. Tashqi investitsiyalar va kreditlarning asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi ham 2017-yildagi 23,8 foizdan 2022-yilda 42,8 foizga ko'tarilgan. Bu ko'rsatkichlar klaster tizimi doirasidagi investitsion oqimlarning o'sish dinamikasini aks ettiradi va ishtirokchilar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarning intensivlashganligini ko'rsatadi.

Klaster ichki munosabatlarning yana bir muhim ko'rinishi – texnologik kooperatsiya va zamonaviy uskunar bilan ta'minlash. O'zbekiston hukumati so'nggi uch yil ichida 14 mlrd AQSh dollari qiymatidagi uskunar import qilgan [20]. Bu uskunalarining sezilarli qismi klaster tarkibidagi to'qimachilik korxonalariga yo'naltirilgan. Klaster yadrosi va texnologiya yetkazib beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar xom ashyoni qayta ishlash samaradorligini oshirish, ipning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va tayyor mahsulotning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Klaster munosabatlarning ijtimoiy o'lchami ham e'tiborga sazovor. Jahon banki va XMT hamkorligida amalga oshirilgan monitoring natijalariga ko'ra, 2022-yildan boshlab O'zbekiston paxta hosili majburiy mehnat va bolalar mehnatidan to'liq xoli deb tan olingan [17]. Bu yutuq klaster tizimi doirasidagi mehnat munosabatlarning tsivilizatsiyalashgan normalar asosida shakllanganligini ko'rsatadi. Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar nafaqat moddiy foyda, balki ijtimoiy mas'uliyat va adolatli mehnat sharoitlarini ham o'z ichiga olishi zarur.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Tadqiqot natijalari klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning ko'p qirrali va dinamik xarakterga ega ekanligini tasdiqladi. Porter, Krugman va Marshall nazariy asoslari klaster ichki munosabatlarning unumdorlikni oshirish, innovatsiyani rag'batlantirish va yangi korxonalar shakllanishini ta'minlash orqali raqobatbardoshlikka ta'sir ko'rsatishini nazariy jihatdan isbotlagan. O'zbekiston paxtachilik-to'qimachilik klasterlari tajribasi bu nazariy xulosalarni amaliy dalillar bilan mustahkamladi.

Birinchidan, klaster tizimining joriy etilishi O'zbekiston to'qimachilik sanoatining tub transformatsiyasiga olib kelgan. 2018–2024 yillar mobaynida

klasterlar soni 13 tadan 142 taga o'sgan, qamrov ulushi 16 foizdan 100 foizga yetgan, eksport hajmi 0,35 mlrd AQSh dollaridan 3,1 mlrd AQSh dollariga ko'tarilgan. Bu raqamlar klaster ishtirokchilari o'rtasidagi vertikal integratsiya aloqalarining samaradorligini bevosita aks ettiradi.

Ikkinchidan, klaster ichki munosabatlari eksport strukturasidagi sifat o'zgarishini ta'minlagan. Past qo'shilgan qiymatli xom ashyo (xom paxta va ip) eksportidan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot (gazlama, trikotaj, kiyim-kechak) eksportiga o'tish klaster ichidagi ishlab chiqarish zanjirining to'liq integratsiyasi tufayli amalga oshgan. 2023-yilga kelib O'zbekiston xom paxtaning 100 foizini ip ga qayta ishlash qobiliyatiga erishgan.

Uchinchidan, klaster munosabatlari bandlik va ijtimoiy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. To'qimachilik sanoatidagi bandlik 2018-yildagi 188 ming kishidan 2024-yilda 600 ming kishiga yetgan va bu o'sishning asosiy qismi klaster tizimi doirasida yaratilgan ish o'rinlari hisobiga ro'y bergan.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Klaster ichki munosabatlarini institutsional mustahkamlash. Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi shartnomaviy aloqalar tizimini huquqiy jihatdan kuchaytirish zarur. Fermerlar va qayta ishlovchilar o'rtasidagi uzoq muddatli shartnomalar mexanizmini takomillashtirish har ikkala tomonning manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

2. Innovatsion hamkorlikni chuqurlashtirish. Klaster tarkibida ilmiy-tadqiqot muassasalari va universitetlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish kerak. Paxta selektsiyasi, suv tejovchi texnologiyalar, avtomatlashtirilgan yig'im tizimlari va sifat nazorati sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish klaster samaradorligini yanada oshiradi.

3. Eksport diversifikatsiyasi. Hozirda eksportning 80 foizi an'anaviy bozorlarga (Rossiya, Xitoy, Turkiya) yo'naltirilgan [16]. Yevropa Ittifoqi va AQSh bozorlariga kirishni kengaytirish uchun xalqaro sertifikatni (BCI, Oeko-Tex, GOTS) ommalashtirish, mahsulot assortimentini kengaytirish va logistik infratuzilmani takomillashtirish zarur.

4. Kadrlar salohiyatini oshirish. To'qimachilik sanoatining jadal o'sishi malakali kadrlar tanqisligini yuzaga keltirgan [17]. Klaster ichida kadrlar tayyorlash markazlarini tashkil etish, xalqaro tajriba almashish dasturlarini joriy etish va professional standartlarni ishlab chiqish zarur.

5. Raqamli transformatsiyani jadallashtirish. Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi ma'lumot almashishni raqamlashtirish, ERP tizimlarini joriy etish, xom ashyo va tayyor mahsulot kuzatuvchanligi (traceability) tizimlarini yaratish klaster ichki munosabatlarining samaradorligini tubdan oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda strategik ahamiyatga ega. O'zbekiston tajribasi klaster yondashuvining rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida ham samarali tatbiq etilishi mumkinligini ko'rsatdi. Kelgusida klaster ichki munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, xalqaro integratsiyani kuchaytirish va

innovatsion salohiyatni oshirish orqali mamlakatning global qiymat zanjirlaridagi oʻrnini mustahkamlash imkoniyati mavjud.

Nazariy nuqtai nazaridan, tadqiqot Porter klaster nazariyasining rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmaganini tasdiqladi. Klaster ishtirokchilari oʻrtasidagi iqtisodiy munosabatlar nafaqat tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, balki bilimlar diffuziyasi, innovatsion hamkorlik va kollektiv raqobatbardoshlikni shakllantirish orqali makroiqtisodiy samaradorlikka hissa qoʻshadi. Oʻzbekistonning paxtachilik-toʻqimachilik sohasidagi klaster tajribasi bu nazariy xulosalarni empirik ravishda qoʻllab-quvvatlaydi.

Amaliy nuqtai nazaridan, tadqiqot natijalari Oʻzbekistondagi klaster siyosatining ijobiy tendentsiyasini koʻrsatdi: klaster tizimi orqali qishloq xoʻjaligi va sanoat integratsiyasi amalga oshirilgan, eksport hajmi va sifati sezilarli oshgan, bandlik koʻrsatkichlari yaxshilangan. Biroq, klaster ichki munosabatlarining samaradorligini yanada oshirish uchun raqamli transformatsiya, xalqaro sertifikatlash va kadrlar salohiyatini rivojlantirish yoʻnalishlarida izchil harakatlar talab etiladi. Bu yoʻnalishlar boʻyicha maqsadli investitsiyalar va institutsional islohot klaster tizimining kelgusi bosqichdagi rivojlanishini taʼminlashda hal qiluvchi omil boʻladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press. <https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=6105>
2. Brookings Institution (2016). Making Sense of Clusters: Regional Competitiveness and Economic Development. <https://www.brookings.edu/articles/making-sense-of-clusters-regional-competitiveness-and-economic-development/>
3. Marshall, A. (1890). Principles of Economics. London: Macmillan. <https://www.econlib.org/library/Marshall/marP.html>
4. Better Cotton Initiative (2024). Better Cotton in Uzbekistan. <https://bettercotton.org/where-is-better-cotton-grown/better-cotton-in-uzbekistan/>
5. Porter, M.E. (2000). Location, Competition, and Economic Development: Local Clusters in a Global Economy. Economic Development Quarterly, 14(1), 15–34. <https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/089124240001400105>
6. Porter, M.E. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, 76(6), 77–90. <https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition>
7. Krugman, P. (1991). Geography and Trade. Cambridge: MIT Press. <https://mitpress.mit.edu/9780262610865/geography-and-trade/>
8. Marshall, A. (1890). Principles of Economics. London: Macmillan. Book IV, Chapter X. <https://www.econlib.org/library/Marshall/marP.html>
9. Ketels, C. (2017). Cluster Mapping as a Tool for Development. Harvard Business School, Institute for Strategy and Competitiveness. [https://www.hbs.edu/ris/Publication%20Files/Clusters\\_and\\_Economic\\_Policy\\_White\\_Paper\\_8e844243-aa23-449d-a7c1-5ef76c74236f.pdf](https://www.hbs.edu/ris/Publication%20Files/Clusters_and_Economic_Policy_White_Paper_8e844243-aa23-449d-a7c1-5ef76c74236f.pdf)



10. European Cluster Collaboration Platform (2024). ECCP Cluster Panorama 2024. [https://www.clustercollaboration.eu/sites/default/files/document-store/Cluster\\_Panorama2024.pdf](https://www.clustercollaboration.eu/sites/default/files/document-store/Cluster_Panorama2024.pdf)
11. Bergman, E.M. & Feser, E.J. (1999). Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications. Regional Research Institute, WVU. <https://researchrepository.wvu.edu/rri-web-book/4/>
12. World Bank (2020). Cotton-Textile Clusters in Uzbekistan: Status and Outlook. Policy Dialogue on Agriculture Modernization. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/305731601271791257/pdf/Policy-Dialogue-on-Agriculture-Modernization-in-Uzbekistan-Cotton-Textile-Clusters-in-Uzbekistan-Status-and-Outlook.pdf>
13. Babadjanov, J. & Petrick, M. (2023). Uzbekistan's cotton clusters in the context of the industrial policy debate. Eurasian Geography and Economics, 65(3), 354–383. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/15387216.2023.2267093>
14. USDA Foreign Agricultural Service (2024). Cotton and Products Update – Uzbekistan. [https://apps.fas.usda.gov/newgainapi/api/Report/DownloadReportByFileName?fileName=Cotton+and+Products+Update\\_Tashkent\\_Uzbekistan+-+Republic+of\\_UZ2024-0003.pdf](https://apps.fas.usda.gov/newgainapi/api/Report/DownloadReportByFileName?fileName=Cotton+and+Products+Update_Tashkent_Uzbekistan+-+Republic+of_UZ2024-0003.pdf)
15. Better Cotton Initiative (2024). Programme Data: Uzbekistan 2024. <https://bettercotton.org/where-is-better-cotton-grown/better-cotton-in-uzbekistan/>
16. Daryo.uz (2023). Uzbekistan's cotton sector 2023: 621,000 metric tons production and \$200mn investment. <https://daryo.uz/en/2023/12/18/uzbekistans-cotton-sector-2023-621000-metric-tons-production-and-200mn-investment>
17. UzDaily.uz (2024). Uzbekistan's textile sector: A Giant in the making. <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-textile-sector-a-giant-in-the-making/>
18. Yin, R.K. (2014). Case Study Research: Design and Methods. 5th ed. Thousand Oaks: SAGE Publications. <https://us.sagepub.com/en-us/nam/case-study-research-and-applications/book250150>
19. IMF (2024). Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation. IMF Staff Country Reports, 2024/210. <https://www.elibrary.imf.org/view/journals/002/2024/210/article-A001-en.xml>
20. Embassy of Uzbekistan (2024). The Groundwork of Economic Reforms in 2024. <https://uzbekistan.org/the-groundwork-of-economic-reforms-in-2024/4446/>
21. U.S. Department of State (2024). 2024 Investment Climate Statements: Uzbekistan. <https://www.state.gov/reports/2024-investment-climate-statements/uzbekistan/>
22. World Economic Forum (2024). Transitioning Industrial Clusters Annual Report 2024. <https://www.weforum.org/publications/transitioning-industrial-clusters-annual-report-2024/>
23. World Bank (2025). Uzbekistan Overview: Development news, research, data. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>



24. <https://www.eurasian-research.org/publication/industrial-policy-of-uzbekistan/>
25. UNDP Moldova (2024). All economic roads lead to clusters. <https://www.undp.org/moldova/blog/all-economic-roads-lead-clusters>
26. Loo, S. (2021). Growing from Clusters to Ecosystems. Civil Service College Singapore. <https://knowledge.csc.gov.sg/digital-issue-07/growing-from-clusters-to-ecosystems/>



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhih:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, fevral, 2-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610  
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



**"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali** 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



**"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710.** FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**